

**Qodirova Tursunxon**

**Yulchiyeva Umidaxon**

*Yangiqo‘rg‘on tuman rasmiy otinoyilari*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada dunyodagi eng muqaddas dargohlardan biri bo‘lgan oila va uning jamiyatdagi vazifalari, oilaning tinchligi, faravonligi jamiyat uchun qanchalar ahamiyatli ekanligi tavsiflangan.*

**Kalit so‘zlar:** *oila, jamiyat, hadis, urf-odatlar, ona, ayol, qalb, iymon, rahmon.*

**Абстрактный.** *В данной статье описывается семья, которая является одним из самых священных мест в мире, и ее функции в обществе, насколько важны для общества мир и благополучие семьи.*

**Ключевые слова:** *семья, общество, хадисы, традиции, мать, женщина, сердце, вера, милосердие.*

**Abstract.** *This article describes the family, which is one of the most sacred places in the world, and its functions in society, how important the peace and well-being of the family is for the society.*

**Key words:** *family, society, hadith, traditions, mother, woman, heart, faith, merciful.*

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki - davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan! Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma’naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog‘lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat –ku! Bu – hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasigagi sharafli vazifa. Oila dastlab ikki kishidan barpo bo‘ladi. Shaffof irmoqlar biri biriga qo‘shilib jo‘shqin soy, daryolarni tashkil qilgani kabi o‘zbeklar uchun katta oilalar urf hisoblanadi. Qo‘shgani bilan q‘osha qarishni, serfarzand bo‘lishni, hamma bolalari yig‘ilib kelganda uyi to‘ydek bo‘lib ketishini, chiroyli qarishni orzu qilmagan o‘zbeklar, oila sohiblari topilmasa kerak.

Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan. O‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari qadim – qadimdan va hozir boshqa millat kishilarida ham hayrat, ham hurmat uyg‘otgan xususiyatdir. O‘zbek oilasida ayol, ona ana shu qo‘rg‘onning posbonlari, oilaning muqaddasligini ta’minlovchi mo‘tabar insonlardir.

Qur‘oni karimda, hadislarda ayol – onani ulug‘lash kerakligi haqida ko‘plab ibratli ko‘rsatmalar bor. Ularning hammasi ayol – onaning oilada tutgan o‘rnidan kelib chiqib aytilgan, albatta. Negaki, dunyoga yangi kelgan farzand uchun oila – ilk tarbiya maskani, shu muqaddas dargohning ma’naviy – axloqiy muhitini yaratuvchi mo‘tabar zotdir. Momolarimiz o‘z cheklariga tushgan bu qutlug‘ vazifani juda sidqidildan bajarib

kelganlar. Ana shu momolar o'gitini eslash, tiklash, rivojlantirish hozirgi kunda oldimizda turgan eng dolzarb vazifalarning bir uchquni desak to'g'ri bo'lar. Qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar, mamlakat taraqqiyotiga oid hamma dasturlarda millatning yuzi, nozik qalbi, op-nomusi bilan bog'liq ma'naviy qadriyatlarga qayta-qayta murojaat qilinishi, ulardan quvvat olinishi, e'zoz bilan qaralishi bejiz emas. Oila – bashariyat yaratgan bebaho, yombi ma'naviy qadriyatdir.

Qalbning iymonli va rahmonliligi yoki, aksincha, bag'ritoshlik va iblislik ham oilada shakllanadi.

Onalarimiz bu muqaddas vazifani juda oddiy yo'l bilan, ya'ni odobi, demakki xalq odobining eng ibtidoiy, lekin umri boqiy, qadri abad qirralari – kattalarga hurmat, kichikka izzat, murosai madora, yulduzga yulduzni moslab yashash kabilarni singdirish, bu fazilatlarni zamonga qarab rivojlantirish, oilaning har bir a'zosi ruhida turg'un qilish bilan o'taganlar. Oqibatda xalqimizga ulug' farzandlarni etishtirib berganlar.

Yuqorida oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati, aytish kerakki – davlat siyosati, dedik. Shuning uchun ham dunyoda necha xalq, necha xil millat, necha xil mamlakat bo'lsa, ularning nashr etgan behisob adabiyotlari ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatda tutgan o'rni xususida alohida varaqlardan tortib, katta-katta ensiklopediyalargacha, hukumat qarorlari, nizomlardan tortib, kodekslarga uchratish mumkin.

Oila muqaddas va buyuk ne'mat hisoblangani uchun ham juda ko'p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro'yi deb qaraladi. Taraqqiy etgan davlatlarning o'z mamlakatlarida oilaga bunday katta e'tibor berishi, turli yo'llar bilan uning nufuzini ko'tarishga intilishi also bejiz emas.

Bizda oilalar qurayotganda an'anaviy ko'rsatmalarga amal qilinadi. Asrlar davomida ma'naviyatimiz boyib borayotganiga, oilalarimiz mustahkamligiga bu ko'rsatmalarning insonparvarligi, umrboqiyliigi sabab bo'layotgani ham sir emas. Yaxshi oila xushxulqli, iymonli solih kishilarni, ibratli insonlarni tarbiyalaydi.

Voyaga yetayotgan har bir kishi oila to'g'risidagi yaxshi ko'rsatma, yo'riq, tuzuk, qonun- qoidalarini yaxshi bilishi lozim. Ana shu bilim va istak ularning o'z oilalarini ko'rkam tuzuvlariga, shu kichkina mamlakatlarni to'g'ri boshqaruvlariga yordam beradi. Oilada pihatli umr kechirish – barakatli umr kechirish demakdir.

Bordi-yu oila tuzuk bo'lmasa, tarbiyaga ham e'tibor berilmasa, qancha buyuk bo'lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko'p ta'kidlashgan: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz yo bo'lmasa, hech bir zamon e'tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz quradi... Agar bir millatga bunday hol ro'baro' kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochiladi..."



Shuning uchun ham hamma asrlarda, hamma xalq va millatlarda dunyoning buyuk olim va fuzalolari, taniqli adiblari umrlarining oxirigacha qimmatli soatlarini oilani yaratish, uni barqarorlashtirish, insonni eng noyob farog'atdan bahramand qilish baxtiga muvassar etish ustida bosh qotirib o'tkazadilar. Garchi oila turmushni iqtisodiy tashkil etuvchi ilk uyushma sifatida ibtidoiy davrlardan boshlab mavjud bo'lib kelayotgan bo'lsa ham, davrlar o'tishi, "zamonlar o'zgarishi" bilan oilaning maqsad va vazifalari ham o'zgarib, tobora takomillashib boraveradi.

Oila har bir jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamiyat vujudga keladi. Chunki, o'zaro mehri bo'lgan ota-onalarning farzandlari ham bir-birlariga mehribon bo'ladilar. Bu xususda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan quyidagi hadis vorid bo'lgan: Al-Mug'ira bin Shu'ba roziyallohu anhu aytadilar: Men bir ayolga sovchi qo'ydim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam menga: "Uni ko'rdingmi?" – dedilar. Men: Yo'q, dedim. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Uni ko'rgin, ko'rib (bilib) turmush qurishlik o'rtangizda ulfat va muhabbat paydo bo'lishiga sabab bo'ladi", dedilar (Imom Termiziy rivoyati). Oilada yuksak ma'naviy muhitni tashkil etish juda muhim. Bunda oila a'zolarining, ayniqsa, er va xotinning o'zaro murosa-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, shu bilan birga, oilaviy sirlarni ko'chaga olib chiqmasligi singari bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi paytlarda oila mustahkamligi, kelin-kuyovning baxtli, tug'ilajak zurriyotlarning sog'lom bo'lishini o'ylab nikoh oldidan kelin-kuyovni tibbiy ko'rikdan o'tkazish ham joriy etildi. Avaylab-ardoqlab voyaga yetkazgan qizini ne-ne umidlar va katta xarajatlar bilan turmushga uzatgan, qizlari tufayli kuyovli bo'lgan, nabiralarni orzu qilgan ota-ona to'ydan ko'p o'tmay kuyovining bedavo dardga yo'liqqanini bilsa, qay ahvolga tushishini bir o'ylab ko'ring. Yoki olgan kelingiz bedavo xastalikka chalingan bo'lsayu, ota-onasi buni yashirib, uzatib yuborishgan bo'lsa-chi? Ana shunday ko'ngilsiz voqealarning oldini olish, oila va farzandlar iqbolini o'ylab, sog'lom oila va turmushni barpo etish maqsadida joriy etilgan bu tadbirning kelin-kuyovga ham, ularning yaqinlariga ham faqat foydasi bor. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam mo'min-mo'minga firib berishligi, uni aldashi mumkin emasligini ta'kidlab shunday deganlar: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim firib bersa, u mendan emas", dedilar (Imom Muslim rivoyati).

Oilaning tinch, farzandlarning baxtli bo'lishligida er-xotinning har ikkisi ham oiladagi o'z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhimdir. Er o'z o'rnini yo'qotgan, xotin esa, erning mavqesiga da'vogarlik qilgan oilalarda nafaqat notinchlik bo'ladi balki, el-yurt, mahalla ko'y orasida ham bunday oilaning hurmati bo'lmaydi.

Oilani boshqarish mas’uliyatini Alloh taolo Qur’oni karimda erkaklarning zimmasiga yuklagan.

Yana bir muhim masala, bu – qurilgan oilani bus-butun saqlab qolish. Dinimizda oila qurishga targ’ib etish bilan birga, uni yaxshilik bilan tutishga buyurilgan. Agar er-xotin o‘zaro kelisha olmagan taqdirlarida isloh qilish uchun har ikki tomondan hakamlar jalb etish lozim bo‘ladi. Qur’oni karimda shunday deyilgan: “Agar ular (er-xotin)ning oralari buzilib ketishidan qo‘rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuboringiz. Agar (er-xotin) islohn xohlasalar, Alloh o‘rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon va xabardor zotdir” (Niso surasi, 35-oyat). Zero, er-xotinning orasini isloh qilish eng savobli amal sanaladi.

Alloh taolo yurtimizni tinch, oilalarimizni farovon, farzandlarimizni barkamol bo‘lmoqlarini nasib etsin...

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir». T., Sharq, 1997-y.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. T., Uz., 1997-y.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., Uzb. 1999-y.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot — pirovard maqsadimiz. T., O‘zbekiston. 2000. 8-tom.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1997. 20-30-b.
6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. o‘sha joyda. 32-62-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston. 1992.
8. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosida tushuncha va tamoyillar. T., O‘zbekiston. 2001.
9. Munawarov A.K. Pedagogika. T., O‘qituvchi. 1996.
10. Munawarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O‘qituvchi. 1994.
11. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. T., O‘qituvchi. 2000.
12. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. 2001.
13. Поласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. М., 2001.380
14. Поласый И. П. Педагогика. 100 вопросов — 100 ответов. М., 2001.
15. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. М., 2001.
16. Рабочая книга социология. М., Просвещение. 1991.
17. Рабочая книга школьного психолога. М., Просвещение. 1991.
18. Кинонова И.М. Семинарские и практические занятия по дошкольной педагогике. М., 1989.
19. Арнаутова Е.П. Педагог и семья. М., 2001.
20. Маслов Н.Ф. Рабочая книга социального педагога. 1994.